



## HUDUDLARDA IT PARKLARNI TASHKIL ETISHNING USTUVOR VAZIFALARI

**Sultanova Zuxra Jaksilikovna, Nukus shahar 1-son texnikum katta**

**o'qituvchisi. e-mail: [zuxrasultanova66@mail.com](mailto:zuxrasultanova66@mail.com)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hududlarda IT parklarni tashkil etish mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari va ularning ustuvor vazifalari yoritilgan. Shuningdek, hududlarda IT parklarni tashkil etishning ustuvor vazifalarini amalga oshirish yuzasidan xulosa berilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются содержание, особенности и приоритетные задачи организации IT-парков в регионах. Также дается заключение о реализации приоритетных задач организации IT-парков в регионах.

**Abstract.** This article discusses the content, specific features and priority tasks of organizing IT parks in the regions. Also, a conclusion is given on the implementation of priority tasks of organizing IT parks in the regions.

**Kalit so'zlar.** Mintaqa, IT park, park, texnologiya, innovatsiya, markaz, mahsulot, vazifa.

**Ключевые слова.** Регион, IT-парк, парк, технология, инновации, центр, продукт, задача.

**Key words.** Region, IT park, park, technology, innovation, center, product, task.

Bugungi global iqtisodiy sharoitda raqamli texnologiyalar iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Bunday hududlarning o'ziga xos xususiyati biznes infratuzilmasini tashkil etuvchi ixtisoslashgan xizmatlar majmuasini anglatadi. Shu bois, sanoat parklarini mintaqaning iqtisodiy rivojlanishining bir qismi sifatida o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda [1]. Bu masala bo'yicha mamlakatning ustuvor sohasi sifatida islohotlar chuqurlashtirildi. Xususan, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi IT va innovatsiya



sohasida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirib, uni IT rivojlanishining istiqbolli markaziga aylantirdi [2].

Hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion faollikni oshirishda IT parklar muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Mintaqalarda IT parkning tashkil etilishi rezidentlarga o'z mahsulotlarini butun mamlakat bo'ylab sotish imkonini beradi [3]. Chunki, IT parklar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot, raqamli xizmatlar, startaplar va innovatsion biznes sub'ektlarini birlashtiruvchi maxsus innovatsion hudud bo'lib hisoblanadi. Sanoat parklari mintaqalar va munitsipalitetlarning iqtisodiy rivojlanishini kuchaytirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning unsuri sifatida qaraladi [4]. Ularni hududlarda tashkil etish esa markazlashgan iqtisodiy o'sishni cheklab, mintaqalar o'rtasida iqtisodiy muvozanatni ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Ko'pgina mamlakatlarda iqtisodiy faollik asosan poytaxt va yirik shaharlarda jamlangan. IT parklarni hududlarda tashkil etish iqtisodiy faollikni chekka hududlarga yo'naltiradi, mahalliy resurslardan samarali foydalanishga imkon berib, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartiradi. IT parklar yaratilishi kompaniyalar va kishilar orasida innovatsiyalarni rag'batlantirishga imkon beradi. Yirik IT kompaniyalarning muvaffaqiyatli ishlashi, samarali IT ishlanmalari va startap loyihalari uchun barcha bosqichlarda g'oyadan boshlab yakuniy mahsulotgacha eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratadi [5]. IT parklar hududiy iqtisodiyotda yangi o'sish markazlarini yaratib, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksportbop IT xizmatlarini rivojlantirish va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalarni bajaradi.

Hududlarda IT parklarni tashkil etish bugungi kunda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va innovatsion salohiyatni oshirishda muhim vosita sifatida qaraladi. IT parklar nafaqat yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va xizmatlarni rivojlantirish, balki startap ekotizimini shakllantirish, malakali kadrlarni jalb etish va ularni professional rivojlantirish, shuningdek, hudud iqtisodiyotini raqamlashtirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.



Fikrimizcha, hududlarda IT parklarni tashkil etishning ustuvor vazifalari quyidagi yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi:

- qulay institutsional va huquqiy muhit yaratish. Bu borada IT parklarni tashkil etishda birinchi navbatda huquqiy va institutsional asos mustahkam bo‘lishi lozim. Ushbu vazifa IT parklar faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun va qarorlarni qabul qilish, rezidentlar uchun soddalashtirilgan litsenziyalash va ro‘yxatdan o‘tish tartibini joriy etish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish tizimini kuchaytirish hamda davlat organlari bilan raqamli muloqot mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish kabilarni o‘z ichiga oladi. Qulay huquqiy muhit esa investorlar va tadbirkorlar ishonchini oshiradi.

- zamonaviy infratuzilmani shakllantirish. Bu borada IT parklarning samarali faoliyati infratuzilmaning holatiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu bois, yuqori tezlikdagi internet va telekommunikatsiya tarmoqlarini ta‘minlash, data-markazlar va bulutli hisoblash infratuzilmasini barpo etish, ofis binolari, kovorking markazlari, laboratoriyalar tashkil etish hamda transport, energiya va kommunal xizmatlarni uzluksiz ta‘minlash kabi vazifalar ustuvor bo‘lib hisoblanadi. Infratuzilma qanchalik rivojlangan bo‘lsa, IT park shunchalik jozibador bo‘ladi.

- investitsiyalarni jalb qilish va rag‘batlantirish. Bu borada IT parklarni tashkil etishda asosiy vazifalardan biri mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdir. Ushbu yo‘nalishda soliq va bojxona imtiyozlarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish, venchur kapital va startap fondlarini shakllantirish va investitsiya loyihalari uchun kafolatlar berish kabi choralar muhim ahamiyatga ega.

- innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish. Bu bo‘yicha IT parklarning asosiy vazifasi innovatsion biznes muhitini yaratishdan iborat bo‘ladi. Shu maqsadda startap inkubatorlari va akseleratorlar tashkil etish, biznes-rejalashtirish va marketing bo‘yicha konsalting xizmatlari ko‘rsatish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish mexanizmlarini joriy etish hamda yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

Ayniqsa, hududlarda IT parklarning barqaror faoliyati yuqori malakali kadrlar mavjudligiga bog‘liq. Shu sababli, oliy ta‘lim muassasalarida IT yo‘nalishlarini kengaytirish, dual ta‘lim va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish hamda



qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. Hamda IT parklar ta'lim va fan bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Ya'ni, bu borada universitetlar huzurida IT park filiallarini ochish, talabalar va tadqiqotchilarni startaplarga jalb qilish, qo'shma ilmiy-amaliy loyihalarni moliyalashtirish innovatsion ekotizimni mustahkamlaydi.

Shuningdek, hududiy raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish vazifalari esa quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

- raqamli xizmatlar bozorini kengaytirish. Bu borada IT parklar hududlarda elektron davlat xizmatlari, elektron tijorat va logistika platformalarini rivojlantirish orqali raqamli iqtisodiyotni chuqurlashtiradi.

- mahalliy sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish. Bu bo'yicha IT parklarning yana bir ustuvor vazifasi an'anaviy tarmoqlarni raqamlashtirish bo'lib, ularga sanoatda Industry-4.0 yechimlarini joriy etish, qishloq xo'jaligida "aqlli ferma" texnologiyalarini qo'llash hamda xizmatlar sohasida avtomatlashtirish orqali hududiy iqtisodiyot samaradorligini oshirish kabilar xos bo'ladi.

Ulardan tashqari, IT parklarni boshqarish va monitoring qilish vazifalari esa quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi:

- samarali boshqaruv modellarini joriy etish. Ya'ni, IT parklarning barqaror ishlashi uchun mustaqil boshqaruv kompaniyalari, KPI asosida baholash tizimi hamda shaffof hisobot va audit mexanizmlari joriy etilishi shart.

- natijadorlikni baholash ko'rsatkichlari. Unga asosan, ustuvor vazifalardan biri IT parklar samaradorligini baholash bo'lib, ularga rezidentlar soni, yaratilgan ish o'rinlari, investitsiyalar hajmi, eksport tushumlari va innovatsion mahsulotlar soni kabilar kiradi.

Xalqaro hamkorlik va global integratsiya vazifalariga ham ega bo'lib, IT parklar xalqaro maydonda faol bo'lishi lozim. Jumladan, xorijiy IT kompaniyalar bilan hamkorlik qilish, xalqaro akselerator dasturlarida ishtirok etish hamda autsorsing va eksport xizmatlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu esa hududiy IT parklarning raqobatbardoshligini oshiradi.



Shunday qilib, hududlarda IT parklarni tashkil etishning ustuvor vazifalari kompleks va ko'p qirrali bo'lib, ular iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy va texnologik sohalarni qamrab oladi. IT parklar hududiy innovatsion ekotizimni shakllantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, startaplar va raqamli loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, hududlarda IT parklarni tashkil etish iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning muhim vositasi bo'lib qaraladi. Bu borada IT parklarni tashkil etishda institutsional va huquqiy muhitni yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, inson kapitalini shakllantirish, innovatsiya va raqamlashtirishni chuqurlashtirish hamda samarali boshqaruv va monitoringni ta'minlash kabi ustuvor vazifalar hal qilinishi lozim. Aynan, ushbu vazifalarning kompleks va tizimli amalga oshirilishi esa hududiy IT parklarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Журавлева О.В., Дорофеева Т.Д. Создание промышленных парков как механизм развития региона. // Региональная экономика: теория и практика, 7 (2016). - с. 49-61. - с. 49.
2. <https://www.linkedin.com/pulse/park-uzbekistan-strategic-location-digital-development-manimama-dyx2e/>
3. Череповская Н.А. О Перспективах создания IT-кластера на региональном уровне. // Вестник БГТУ им. В.Г.Шухова. 2018, №5. - с. 159.
4. Sandler D.G., Kuznetsov P.D. Industrial Parks In Russia: Conceptual Development Of Projects. // R-Economy, 1/2015. - p. 68.
5. Malysheva E., Adonina A. Architecture of new technological worlds on the example of IT-parks. // E3S Web of Conferences 402, 03038 (2023). TransSiberia 2023. - p. 2.